

JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU BO'L OMON!

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!№ 33 (67250)
2019-yil 19-avgust



Teng yulduzi

www.tengyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092



*Bu d unyod a
top gan javobim,
Mening baxtim
sensa n, k itobim!*



O'QISHGA SHAYLANGAN BOLALAR



«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!» tanloviga



DUGONAM PUSHAYMON BO'LDI

Tabiiy boyliklarimiz, xususan, suvni qadrlash haqida gap ketganida, bir voqea yodimga tushadi. Bir kuni dugonam bilan uyimizning yonidan oqib o'tadigan anhor bo'yida suhbatlashib o'tirgan edik.

Unda to'lib-toshib oqayotgan zilol suvdan bahra olish men-ga zavq bag'ishlardir. Dugonam esa hali pista chaqib, hali meva yeb po'chog'ini sellofan xaltaga to'playotgan edi. Suhbatimiz tugab uyga kirmoqchi bo'lganimizda, u qo'lidagini suvga uloqtirdi. Men hang-u mang bo'lgancha o'ylanib qoldim. Duniyoning qaysidir chekkasida bir tomchi toza suvga zor tengdoshlarimiz bor-ku, axir. Biz esa jannatmakon yurtda ulg'aymoqdamiz. Anhorlarimizdan to'lib-toshib suvlar oqadi. Shu ne'mat sabab, bog'-rog'larimiz ko'm-ko'k mevalarga to'la. Toshidan toshga urilib oqayotgan obihayotning shildirashi hech qachon tinmasin! Dugonam xayollarimni o'qiy boshlagandek boshini egdi. Men esa «Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q», deb shuni aytishsa kerak-da, deya pichirladim. U qilgan ishidan pushaymon bo'ldi. Men har bir tengdoshim tabiiy boyliklarimizni qadrlashini tilayman.



Umida MO'MINOVA,
Suxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi
26-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

«YANGI HAYOT»GA - OBIHAYOT KERAKI!

Bu yil yoz har yilgidan issiq bo'lgani sababli, ta'til oyida ko'pgina bolalar tog'li hududlardagi oromgohlarda mazza qilib hordiq olishyapti, tiniq buloq suvidan iste'mol qilishyapti. Ammo Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanida joylashgan «Yangi hayot» mahallasidagi suv ichish tugul, cho'milishga ham yaroqli emas.

Bugungi kunda yurtimizda obodonlashtirish ishlariga katta qiziqish va e'tibor qaratilmoqda. Mahalla va qishloq aholisining muammolarini bartaraf etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ayni damda «Yangi hayot» ham ana shunday yordamga, tashabbusga muhtoj maskanlardan biri.

Mana 10 yildirki, mahallada oqar suv manbasi yo'q. Chekka ko'chalardan biridagi krandan oqayotgan sho'r suv iste'mol qilishga yaroqli emas. Oqibatda, bolalar va kattalar turli xil kasalliklarga chalingan.

Qani endi ushbu mahallaning har bir ko'chasi toza ichimlik suvi bilan ta'minlansa edi... «Yangi hayot» mahallasidagilar, albatta, kun kelib, bu holat o'z yechimini topishiga umid qiladi.

Nazokat ULUG'BEKOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
19-umumta'lim maktabi o'quvchisi



XALQARO MATEMATIKA MAKTABI TASHKIL ETILDI

Buxoro viloyati, Qorako'l tumanida «Xalqaro matematika maktabi» tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori yuzasidan 1-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatiga «Xalqaro matematika maktabi» nomi berildi.

Xalqaro maktab davlat ta'lim standartlari asosida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda aniq va tabiiy fanlar hamda chet tillarini chuqur o'rganishi, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish va faollashtirish bo'yicha amaliy ish olib boradi.

Maktabga chet tillari va matematika fanidan bilimi kuchli, yuqori kasb mahoratiga ega, mahalliy va xorijiy mamlakatlardan tajribali o'qituvchilarni jalb etish rejalashtirilgan.

Shuningdek, xorijdagi matematika faniga qiziquvchan o'quvchilar ham ushbu maktab-internatida tahsil olish imkoniga ega bo'ladilar.

Ha, aytganday, hujjatlarga ko'ra, 2019-2020-o'quv yili uchun Xalqaro maktabning 7-sinfiga 90 nafar o'quvchi qabul qilinar ekan.

Matematikaga qiziquvchi o'quvchilarni ushbu maktab o'z bag'riga chorlaydi.

N. ABDUNAZAROVA

O'QISHGA SHAYLANGAN BOLALAR

Aziz o'quvchilar, ta'tilda mazza qilib hordiq chiqardingizmi? Maktabni ham sog'inib qolgandirsiz-a? Ba'zi bolalar hatto o'quv qurollarini yangi portfeliga joylab, o'quv yili boshlanishini intiqlik bilan kutmoqda.

Lekin orangizda maktab bozoriga ulgurmagani tengqurlaringiz yo'q emas. Ular uchun ajoyib yangiliklarimiz bor. Mamlakatimizning barcha tumanlarida maktab yarmarkalari tashkil etilgan. U yerda siz uchun kerakli barcha asosiy turdagi o'quv qurollaridan tortib, darsliklar, maktab formasini, hatto poyabzallarni ham topishingiz mumkin. Ana shunday maktab yarmarkalari maktab binolarida ham yo'lga qo'yilgan.

– Men bugun buvijonim bilan «O'qituvchi» kitob do'konidan o'zimga kerakli barcha o'quv qurollarini xarid qildim. Bu yerda istaganimdek, turli xil kundalik daftarlari ham bor ekan, – deydi poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 49-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Nurniso Nig'matullayeva.

– Men ham Egamberdi bobom bilan bozor qilgani poytaxtga keldik. Shahardagi maktab yarmarkalarida maktab formadan tortib, sport kiyimigacha bor. Bobomning aytishlaricha, narxi ham hamyonbop ekan, – deydi Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Mirzohid Egamberdiyev.

Sotuv rastalariga nazar solar ekanmiz, o'quvchilar uchun zarur 26 turdagi o'quv qurollarining xilma-xilligi, sifati sizni, albatta, qoniqtiradi, deb o'ylaymiz. Mahsulotlarning o'zimizda ishlab chiqarilganligi sababli, narxlar ham hamyonbop.



Ta'tilni bobom bilan Toshkentda o'tkazdim. Dam olish juda maroqli o'tdi. Ayniqsa, Ashxobod sayilgohidan katta taassurotlar oldim. U yerda 120 metrdan baland bo'lgan charxpalakda uchdim. Balanddan shahar kaftdek ko'rinarkan. Hatto bog'da tirik delfinni ham ko'rdim.

«LIKE»NING BAHOSI QIMMATGA TUSHDI

Har kuni jamoat transportida o'qish, ishga ketayotib aksariyat yoshlarning qo'lidan telefon tushmasligiga ahamiyat berganmisiz?



Ular internet orqali turli video-lavhalarini tomosha qilib, undagi obrazlarga taqlid qilayotganlari haqida so'nggi vaqtlarda ko'p eshitmoqdamiz. O'tgan o'quv yilida maktabimizda bir holat yuz bergandi. Ta'lim maskanimizning 8-sinf o'quvchilari «Instagram» tarmog'ida ko'proq ovoz («like») yig'aman, deb 9 qavatli binoning tomiga chiqib selfi qilishgandi. Ma'lum bo'lishicha, ular shu yerda yig'ilib «hordiq» ham chiqarishar ekan. Maktabimiz ma'muriyati va tuman profilaktika nozirlari bu holatni o'rganib, tegishli choralar ko'rishdi.

Ammo bu selfi deganlari qanchadan qancha tengdoshlarimizga qimmatga tushayotgani achinarli, albatta. Selfi o'zi nimaligini bilamizmi? Inglizchadan tarjima qilinganida, «self» – «o'z-o'zini» ma'nosini bildirib, bu o'zini o'zi suratga olishdir. Yaqinda AQSH Psixiatriya assotsiatsiyasi selfida suratga tushishni rasman ruhiy xastalik deb tan oldi. Ruhshunoslarning fikricha, o'zini ko'p suratga olish shaxsning o'ziga ishonchi kamligi bilan bog'liq ekan. Kun bo'yi o'zini suratga olib, internetga kamida oltita surat joylovchilar kasallikning eng og'ir turiga duchor bo'lgan, deb topildi. Noan'anaviy holatdagi surat orqali ovoz, ya'ni «layk» yig'ishga urinishning oqibatlari haqida esa ko'p eshitganmiz. Uch nafar amerikalik o'smir poyezd yo'lida suratga tushishga urinib, uning tagida qolgan edi. Keyinchalik rossiyalik o'quvchi baland binoning tomiga chiqib, u yerdagi elektr simlarini ko'rmay qolib yiqilgach, hayotdan ko'z yumgandi.

Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi telefondan foydalanishning ham o'ziga yarasha foydali va salbiy jihatlari bor. Maqoladan o'zingiz uchun to'g'ri xulosa chiqarasiz, degan umiddamiz. Selfi esa hayotingizning faqatgina yorqin lahzalarini muhrlasin! O'zingizni asrang, vaqtingizni zoye o'tkazmang, o'ta-onangizga faqat quvonch va rahmatlar keltirib yashang!

Azizbek ABDUMALIKOV,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lim maktabi o'quvchisi

T A'TILDAN ZO'R TAASSUROT OLDIM!



Bobom menga ertak kitoblar sovg'a qildi. Kitobdagi «Ur, to'qmoql», «Oltin tarvuz», «Tulki bilan tuma», «To'g'rivoj va Egrivoj», «Sich-qonchanning sarguzashtlari» haqidagi ertaklar menga yoqdi. Toshkentga kelib yangi do'stlar orttirdim. Tug'ilgan kunimni ham poytaxtda o'tkazdim. Hojiakbar tog'am menga chiroyli ko'ylaklar olib berdi. Yangi ko'ylaklarimni kiyib, bobom bilan Tibbiyot akademiyasiga bordik. U yerdagi osmono'par binolarni ko'rib, havasim keldi. Men ham kela-jakda, albatta, shifokor bo'lishni dilimga tugdim. Keyin bobomning ishxonasiga bordim. «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri Feruza opa menga ikki dona kitob sovg'a qildi. Men ijodkorlar dunyosi bilan tanishdim. Quvonchim ichimga sig'mayapti. Surxondaryoga borganimda barcha taassurotlarimni sinfdoshlarimga so'zlab bermoqchiman.

Nilufar MIRZAYEVA,
Surxondaryo viloyati,
Sariosiyo tumanidagi
7-umumta'lim maktabi o'quvchisi

YANGI O'QUV YILIGA KATTA MAQSADLAR BILAN

Mana, yozgi ta'til ham nihoyasiga yetib bormoqda. Maktabimiz o'quvchilari yozni mazmunli o'tkazishgan bo'lsa, ajab emas. Zero, ularning aksariyati o'quv dargohimizda faoliyat yuritgan



to'garaklarga qatnab, hunar o'rganishdi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishdi. Turli tadbir-u sayohatlarni tashkil etgan yoshlar yetakchisi Vasila Tashimova bolalar bilan ishlab tolmadi. Bolajonlarga esa, ayniqsa, hayvonot bog'iga uyushtirilgan sayohat juda manzur bo'ldi. Ushbu tadbir doirasida ular biologiya fanidan olgan bilimlarini takrorlab ham olishdi. Maktabimiz ruhshunosi Nuriya Abdurazzoqova esa o'quvchilar orasida turli mashg'ulot-u testlar o'tkazib, ularni yangi o'quv yilida faol



bo'lmoqlikka tayyorladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham barcha ishlarda ularga ko'makdosh bo'lishdi. Hozirda ta'lim dargohimizda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik avjida. Hademay, birinchi qo'ng'iroq sadolari

yangrab, Mustaqillik darslari o'tiladi.

Fursatdan foydalanib, men barcha ustoz-u o'quvchilarni Mustaqillik bayrami bilan qutlayman! Yangi o'quv yilini katta maqsadlar bilan boshlashlarini tilab qolaman!

Fotima MUMISHEVA,
Toshkent viloyati,
Qibray tumanidagi
47-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



BIR KUN O'YNALGAN TO'P

Asilxo'ja futbol o'ynashni xush ko'radi. Bugun onasi ishdan qaytishda unga sevimli futbol jamoasining nomi tushirilgan yangi to'p olib keldi. Ertasiga bolakay futbol kiyimi-yu butsisini kiydi-da, to'pini olib ko'chaga chiqdi.

Yangi ko'ptokni ko'rgan bolalar darrov uning atrofini o'rab olishdi-da, o'yinni ham boshlab yuborishdi. O'yin qizigandan-qizib bolalar vaqt o'tganini sezmay ham qolishdi. Axiyri, futboldan zerikib to'pni kim balandga tepish «musobaqasi»ni boshlashdi. Shu payt «Tushlik vaqti ham bo'lgandir», deya o'yladi Asilxo'ja. Ammo do'stlari hadeganda sho'xliklarini to'xtatishmadi. Shu orada bolalardan biri tepgan to'p bu safar shox-shabbalar ustiga borib tushdi-yu, puchaya boshladi. Shu bilan o'yin ham tugab, bolalar uy-uyulariga tarqalishdi. Asilxo'ja esa kechki payt ota-onasiga nima deyishini o'ylab xafa bo'ldi. Birgina qo'shni do'sti Bahrom unga achindi-yu, lekin u ham nima yordam qilishini bilmay uyiga kirib ketdi.



Kechki payt bolakayning onasi ishdan kelgach, puchayib qolgan ko'ptokni ko'rib:

– Iye, yap-yangi ko'ptok bir kunda qanday qilib shu ahvolga tushdi? – deb so'radi.

– Men... bolalar... – gapni nimadan boshlashni bilmagan o'g'il yerga qaradi.

– Aytaver, urishmayman, – dedi onasi. – Avvaliga o'rtog'larim bilan to'pni rosa u yoqdan-bu yoqqa tepib ulotirdik. So'ng, bo'ldi, o'ynamayman, to'pimni beringlar, uyga kiramam, desam ham ular quloq solishmadi.

– Ha-a, shunaqa degin... Hozir senga bir voqeani aytib beraman, – dedi doim bolaligi haqidagi ertaklarni tinglashni xush ko'ruvchi o'g'liga.

– Bolaligimda biz ham dugonalarim bilan ba'zan sho'xlik qilardik. Ammo bir-birimizning o'yinchoq yoki kitoblarimizga ozor bermasdik. Faqat bir safar dugonamning suratlar solib qo'yadigan chiroyli albomini bexosdan yirtib qo'yganimiz yodimda. O'shanda u rosa xafa bo'lgandi. Biz esa unga qanday yordam berish haqida o'ylardik. Shunda bir dugonam: «Mening ozroq yig'ib yurgan pulim bor, do'kondan yangisini sotib olamizmi?» deya taklif bildirdi. Mening xayolimga kimdir menga tug'ilgan kunimda sovg'a qilgan ana shunday albom keldi. Uydan uni olib chiqib, dugonamga uzatdim. Kullas, o'zimizcha ishni hal qilganday bo'lib uyimizga tarqaldik.

Ertasi kuni maktabda dugonam men bilan so'rashar ekan, kecha bergan albomimni qaytarib berdi. Hamma ishimizdan xabaridor bo'lgan sinfdoshimning oyisi, «O'rtog'laring yaxshi qizlar ekan, birovning narsasini qadrlash, mushkul vaziyatda yordam berish yaxshi odat, shuning uchun ularni kechirib, yangisini o'zimiz sotib olamiz», debdi. O'shanda bu voqea meni birovning buyumini yanada ehtiyot qilishga o'rgatgandi.

Asilxo'ja hikoyani jon qulog'i bilan eshitir ekan, bir kun do'stlariga ham so'zlab berishini aytdi. Zero, faqat yaxshi gap-u, insonni ta'sirlantirish orqali uning xatosini tushuntirish mumkinligini u yaxshi bilardi.

Sayyora QODIROVA



Biz sinfdoshlar ota-onamiz bilan birga Zomin tog'lariga sayohat qildik. Bu maskandan sayohatchilarning qadami uzilmasligi haqida eshitganman. Shuning uchun bu purvisqor tog'larni ko'rishga juda oshiqardim. Manzilga yetar ekanmiz, archazorlar quyushlab borardi. Osmondagi yirik qushlar havoda qanot qoqmay, suzib yurgandek, go'yo.

Bir necha kun avval yoqqan yomg'irdan so'ng Zomin tabiati yanayam go'zallashib, jonlangandek. U yerlarda shifobaxsh o'simliklar ko'p ekan. Biroq, yo'lda chakalakzorlarga ham duch keldik. Bu tog' echkisi, tulki, quyon kabi jonivorlarning xavf-xatarsiz yashashlari uchun zarur ekan. Baland cho'qqilarga chiqqanimizda esa O'rikli soy anhorining hayotbaxsh suvlaridan bahramand bo'ldik. Tog' yonbag'irlarida archa, chinor, yong'oq daraxtlari yashnab turibdi. Pistazorlar ham keng maydonni egallagan. Ota-onamiz aytganidek, bu maskanning xalq xo'jaligida tutgan o'rni ham beqiyos ekan. Sinfdoshlarim – Kamoliddin Abdullayev, Durdona Narzullayeva, Mirzohid Ilimov bilan ikki kunlik sayohatimiz unutilmas bo'ldi.

Maftuna ABDULLAYEVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
25-umumta'lim maktabi o'quvchisi

ORZULARGA MAHLIYO YURAK

Har bir insonning orzulari, o'ylagan va amalga oshirmoqchi bo'lgan rejalari bor. Albatta, ular faqat orzu bo'lib qolmasligi uchun izlanish va mehnat talab qilinadi.

Men ham o'z oldimga aniq maqsadlar qo'rganman. Shu maqsadlarimga erishish uchun sidqidildan harakat qilyapman. Ko'proq kitob o'qib, to'garaklarga qatnab, bilimimni mustahkamlab boryapman.

Yaqinda «Bahor qaytdi, do'stlarim» deb nomlangan she'riy to'plamim nashrdan chiqdi. Ijod namunalarim «Tong yulduzi», «Gulxan», «Guncha» singari nashrlarda chop etilyapti.

Ayni damda men o'n besh yoshni qarshiladim, oldinda katta hayot yo'li turibdi. Hozirda ijodimni Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi sifatida davom ettirmoqdaman.

Aytmoqchimanki, maqsadlarim tomon intilib, doimo izlanishda yashayapman. Sizlar ham orzu qilishdan to'xtamang, zero orzular maqsadlar sari yetaklaydi.



Abbos SHODMONQULOV,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi
104-umumta'lim maktabi o'quvchisi



HAQIQIY DO'ST - QALBNING QUYOSHI

Telefonini oldi-da, do'stiga qo'ng'iroq qildi:

– Onamning sog'lig'i yomonlashdi! Menda dorilarni olishga pul yo'q, – dedi.

Do'sti:

– Bo'ldi, o'rtoq, xavotir olma. Bir soatdan keyin qo'ng'iroq qil, biron chorasini topamiz, – dedi.

Asrdan keyin do'stiga bog'lanishga urindi. Telefon o'chirib qo'yilgandi. U takror-takror raqam terdi. Telefon o'chirilgan bo'lib chiqdi.

Kimdan bo'lsa

ham pul topish ilinjida ko'chaga chiqib ketdi. Afsus... hech kim unga qarz bermadi.

Dunyolarga sig'may ketdi. Onasiga yordami tegmayotganidan qattiq ranjidi. Undan ham ko'ra do'stining uyaltirgani yomon bo'ldi. Ikki qo'li bo'sh, siqilgan holda uyga qaytdi.

Qarasa, onasi ancha tinch uxlab yotibdi. Yonida xaltada turli xil dorilar. Borib singlisidan so'radi:

– Bularni kim keltirdi?

– Do'stingiz kelib, dorilar yozilgan ro'yxatni olib ketgandi. Hamma dori-

larni topib kelibdi. O'zi hozirgina chiqib ketdi, – dedi.

Ko'zlari yoshga to'ldi. Darrov tashqariga chiqdi. Atrofdan do'stini qidirib topdi.

– Do'stim, senga asrdan beri qo'ng'iroq qilaman! Telefoning o'chiq?! – dedi.

– Men telefonimni sotib ONAJONIMIZ uchun dorilar sotib oldim, – dedi.

Hayotingizning baland-u pastida, boylig-u kambag'allikda suyanch bo'ladiganlar – haqiqiy do'st bo'lishadi.

Telefoningiz yoki yon daftaringizdagi qator DO'STLAR ro'yxatining hammasi ham sizga DO'ST bo'lavermaydi.

Haqiqiy do'stlik inson hayotiga turfa gullar ekan misoli uni go'zallashtiradi.


Internet manbalari asosida tayyorlandi



Lesson 33

WORD SEARCH PUZZLE

G	D	A	A	M	B	A	L	L	X	C
O	X	C	Z	W	E	B	Y	C	E	L
C	C	H	S	H	J	N	B	G	I	A
H	B	A	G	L	O	B	E	Q	R	S
A	F	G	I	K	M	O	N	R	R	S
I	T	E	A	C	H	O	G	C	U	R
R	W	R	H	J	L	N	L	U	L	O
T	O	A	L	F	U	V	I	B	E	O
G	Y	S	H	I	H	K	S	E	R	M
O	C	E	W	V	R	O	H	O	T	L
D	O	R	I	E	N	D	E	S	K	P
W	A	L	L	D	O	O	R	L	U	E



Ball
Classroom
Door
Teach
Eraser




Wall
Globe
Desk
Ruler
Ball

Odina A'ZAMKULOVA,
The pupil of school № 196, in Boyovit district, Sirdarya region

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

ROSE FOR MOTHER

Reading time



A man stopped at a flower shop to order some flowers to be wired to his mother who lived two hundred miles away. As he got out of his car he noticed a young girl sitting on the curb sobbing. He asked her what was wrong and she replied, «I wanted to buy a red rose for my mother. But only have seventy-five cents, and a rose costs two dollars».

The man smiled and said, «Come on in with me. I will buy you a rose». He bought the little girl her rose and ordered his own mother's flowers. As they were leaving he offered the girl a ride home.

She said, «Yes please! You can take me to my mother».

She directed him to a cemetery, where she placed the rose on a freshly dug grave.

The man returned to the flower shop, canceled the wire order, picked up a bouquet and drove the two hundred miles to his mother's house.

Life is short. Spend much time as you can loving and caring people who love you. Enjoy each moment with them before it is too late. There is nothing important than family.

RIDDLES

Fat and gay, on a winter day,
He come here with us to stay.
But day by day he grew and thinned,
And so we brought his younger brother.

What is white
when dirty and
black when clean?



I never ask question,
but always answered.
What I am?

I have no life,
but I can die.
What I am?

Internet sources

ONAMNI SOG'INIB...

Onam yuzim silasa,
Ko'zlarida mehr ko'rardim.
Oppog'im ham novvotim, desa,
Men o'zimni baxtli sanardim.

Ona, sizni har dam sog'inib,
Tushlarimda goho ko'raman.
Yuragim dukillab urganda,
Cheksiz sog'inch hissin tuyaman.

Jannatimning iforin quchsam,
Bag'riga bosh qo'ysam onamni.
Atrofida parvona uchsam,
Yuragimdan yo'qotsam g'amni.

Shahzoda XALILOVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
230-umumta'lim maktabi o'quvchisi



KITOBSEVAR BOLA

O'sib boradi ongi,
Beg'ubordir har tongi,
G'oyalari ham yangi,
Kitobsevar bolaning.

Burro bo'ladi tili,
Ravondir yurgan yo'li,
Har nega yetar qo'li,
Kitobsevar bolaning.

Kun sayin ilmi oshar,
Yangi buloq ko'z ochar.
Har so'zi ma'no sochar,
Kitobsevar bolaning.

Parivash SOBIROVA,
Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi
23-umumta'lim maktabi o'quvchisi



YOZ - JUDA SOZ

Yozni sevgan bolalar,
Tinim bilmay o'ynaydi.
Qancha ko'p o'ynasa ham,
Hech o'yinga to'ymaydi.

Yozgi ta'til maroqli,
Attang, u tugab qolar.
Lekin bolalar undan,
Yaxshi taassurot olar.

Do'stlar, ta'til vaqtini,
O'tkazmang aslo bekor.
Yaxshi hunar o'rganing,
Sizga bilim bo'lsin yor.

Saida ZOKIROVA,
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi
273-umumta'lim maktabi o'quvchisi

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

TAMTUMBOY IV SHOIR

Matrayim va men Tamtumboy IV ga qaradik.
U esa «Kim bilan yurganlaringni bilib qo'yaring»,
degandek bizga qarab qo'ydi.

Kelinoyim pishirgan sho'rva juda mazali ekan.
Mazza qilib ichib oldik. Tog'am suhbatni davom
ettirdi.

– Qani, Tamtumboy IV, yozgan she'rlaringdan
bir o'qib ber-chi.

Tamtumboy
cho'ntagidan
semiz, gulli
daftarini ol-
di-da: – Men
she'r yozishni
juda sevaman.
Adabiyot jon-u
dilim. Janrlar ko'p.
Shu sababli yan-
gi janr – fikr janri
yaratdim. Bolalar
fikrlasin, o'ylasin,
deyman-da.

Men Tamtum-
boy IV ni yangidan
kashf etdim. U
men bilgan, men
tanigan Tamtum-
boy IV emasdi. U
xuddi katta shoir-
lardek salobat bil-
an gapirar, eng
asosiysi, o'zida
ishonch bor edi.
Men-ku men,
do'stim Matrayim ham jonquloq bo'lib o'tirardi.
Nihoyat, Tamtumboy IV she'r o'qiy boshladi.

Fikr 1

Jonzotlarning ichida,
Echki, bildim, qarisi.
Shu sababli ularning,
Soqol qo'ygan barisi.

Matrayim chapak chalib, «Juft bo'lsin», deb
yubordi. Tamtumboy yana o'qidi.

Fikr 2

Olma tagiga olma
Tushar, degan nodonlar.
Maqolning mag'zin chaqmay,
Rosa yanglishgan ular.
Zich ekilsa shaftoli,
Olma tagiga tushar.

Bahrom AKBAROV, bolalar yozuvchisi

Jo'xoriga ilashib,
Kuzda loviya pishar.
Shu sababli okasi,
Maqolni bilish kerak.
Maqolgamas, amalga,
Rioya qilish kerak.

Tamtumboy IV she'rlarni ohista, intonatsiya
bilan o'qigan sari mening hayratim ortib borardi.
Nazarimda, u she'rlarini qayerdandir ko'chirib
olganga o'xshardi.

– Men, – dedi tog'am, – Erkin akadan juda
minnatdorman.
U tufayli elga
tanildim. Gul-
poshshaning
nomi doston
bo'ldi. Aslida,
unda ayb yo'q.
Sevgi degani shu-
naqa bo'larkan.
U tufayli elga
tanildim. Gul-
poshshaning
nomi doston
bo'ldi. Aslida,
unda ayb yo'q.

(Hikoya)

MEN, MATRAYIM VA TAMTUMBOY



dik-ku...

Kulgidan o'zimni zo'rg'a tiydim. Kechamas,
o'tgan kuni yozganing bir tiyinga qimmat, degan
do'stim yo'lga solganmish. Vo ajabo, odamlar
buncha yolg'onchi bo'lmasa?!

– Nima, noto'g'rimi? – dedi Matrayim menga
qarab. Yozganingni «Gulxan»ga ber. U yerdagilar
chiqarmasa ham yo'nalish beradi-ku, deb aytgan
kim?! Albatta, men!

– Haqiqat bahsda tug'iladi, – dedi Tamtumboy
IV. Men ham she'rlarimni «Devoriy gazeta»ga
beruvdim. Chiqarishmadi, xom emish. Bunaqa
she'r hech kimga kerakasmish. Xafa bo'ldim.
O'zim, uydagilar, akalaringma ma'qul bo'lsa bo'ldi-da.
Gavay orolidagi katta akam Tamtumboy I aytdiki:
– She'r insonning o'ziga yoqsa bo'ldi. Boshqalar
nima desa desin. Axir oltin balchiq ichida ham
oltin-ku! Shundan keyin she'rlarimni mana shu
daftarga yozadigan bo'dim...

(Tamom. Davomini kitob holda o'qiydiz).

MEHR

(Ertak)



Bir mo'jizakor o'lka-
da chol bilan kampir
yashashar ekan. Ular
ahil umr kechirishar,
ammo farzandlari yo'q
ekan. Katta-yu kichikka
yordam va mehr ko'rsa-
tishdan tolmaydigan
bu keksalarni esa bir
afsungar ko'ra olmas
ekan.

Bir kuni chol o'rmon-
ga o'tin olib kelgani

ketibdi. Shunda afsungar uni tutib olib zindon-
band etibdi. Kun o'tgani sari kampir choldan
xavotirlana boshlabdi. Oradan

besh kun o'tib, afsungar chol
qiyofasida yelkasida o'tin bi-
lan kampirning uyiga kirib
kelibdi. Kampir uni sog'inch
bilan bag'riga bosgan ekan,
afsungarning yuragiga mehr
nuri yog'ilibdi. U navqiron
yigitga aylanib qolibdi.
Barchasi mehr-muhab-
bat tuyg'ulari orqa-
li amalga oshganini
tushungan yigitcha qil-
gan yovuzligi uchun
kechirim so'rabdi.
Ma'lum bo'lishicha,
afsungarga aylan-
gan yigitning avval-
gi hayoti yomon-
liklarga to'la bo'lgan
ekan. Shunday qilib,
chol ham eson-omon
uyiga qaytibdi. Buni qarangi,
chol-kampirning turmushidan xabar
topgan yigit ularga farzand bo'lishga
ruxsat so'rabdi. Mehridaryo insonlar
bunga rozi bo'lib, unga Mehrjon
deb ism qo'yishibdi. Barcha
murod-maqsadiga yetibdi.

Ana ko'rdingizmi, aziz teng-
doshlar, mehning kuchi har qanday
yovuzlikni yengishga qodir ekan.



Diyorbek DONIYOROV,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
13-umumta'lim maktabi o'quvchisi



An'anaviy o'tkazib kelinayotgan 13-14 yoshli mahalla yoshlari o'rtasidagi

«CHARMTO'P» futbol musobaqasining Toshkent viloyati bosqichi yakunlandi.

Yuqori Chirchiq tumanida bo'lib o'tgan mazkur musobaqada mezbon hududning «Qorasuv» mahalla yoshlari Oqqo'rg'on tumanining «Sultonobod» mahallasi yoshlariga qarshi maydonga chiqdi. Raqib jamoani 9:1 hisobida mag'lub etgan «Qorasuv» mahalla jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. 3-o'ringa da'vogarlik qilayotgan Zangiota tumanining «Ulug'bek» hamda Angren shahrining «Navro'z-1» jamoasi o'rtasidagi uchrashuvda zangiotalik jamoa 4:1 hisobda zafar qozondi.

«Qorasuv» mahallasi yoshlari «Charmto'p» mini futbol musobaqasining respublika bosqichida ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

NODIRBEKNING OMADI CHOPDI

Joriy yilning 6-11-avgust kunlari shaxmat bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari, xalqaro grossmeysterlar - Nodirbek Yoqubboyev, Nodirbek Abdusattorov hamda O'zbekiston chempioni Javohir Sindorov Abu Dabi xalqaro shaxmat festivalida ishtirok etib qaytishdi.

BAAning Abu Dabi shahrida 26-marotaba tashkil etilgan mazkur musobaqada hamyurtimiz Nodirbek Yoqubboyev 7:0 ochko jamg'arib, 2-o'rinni qo'lga kiritdi. 6:0 ochko to'plagan Nodirbek Abdusattorov 16-o'rin, 5:5 ochko jamg'argan Javohir Sindorov esa 28-pog'onadan joy oldi.

Dunyoning 27 davlatidan 55 nafar grossmeyster, 34 nafar xalqaro toifadagi sport ustalaridan iborat jami 150 nafar shaxmatchi qatnashgan ushbu nufuzli turnirda 1-o'rin gruziyalik Baadur Jobavaga nasib etdi. Kumush medal sohibi Nodirbek Yoqubboyevga 7 500 AQSH dollari miqdorida pul mukofoti ham topshirishdi.



PESHQADAMLAR ANIQLANDI

Xorazm viloyatining Urganch shahrida bolalar va o'smirlar o'rtasida futbol bo'yicha «Futbolimiz kelajagi» musobaqasining viloyat bosqichi o'tkazildi. Ushbu musobaqada quyi bosqichlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan 12 ta mahalla jamoalaridan iborat 124 nafar yosh sportsevarlar ishtirok etdi.



Musobaqa natijalariga ko'ra, 9-10 yoshli bolalar o'rtasidagi bahslarda Xiva tumanidagi «Al-Xorazmiy» nomidagi mahalla jamoasi g'olib bo'ldi. Urganch shahri «Olimpiya» mahallasi jamoasi 2-, Hazorasp tumani «Muhomon» mahallasi jamoasi 3-o'rinni egalladi.

11-12 yoshli bolalar bahslarda Gurlan tumani «Navbahor» mahallasi jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2-o'ringa Urganch tumani «Merganovul» mahallasi jamoasi, 3-o'ringa esa Xiva shahar «Gilamchilar» mahallasi jamoasi loyiq topildi.

13-14 yoshdagi o'smirlar o'rtasidagi musobaqalarda Xonqa tumani «Gulg'uncha» mahallasi jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shovot tumani «Ipakchi» mahallasi jamoasi hamda Yangibozor tumani «Do'stlik» mahallasi jamoasi qolgan o'rinlarni zabt etishdi.

G'olib jamoa va faol ishtirokchilar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat Kengashining esdalik sovg'alari, diplom va faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi.


BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«U» HARFLI KROSSVORD

Javob so'zlari «u» harfli bo'g'inlardan iborat.

Eniga: 5. Bo'yni kalta, ko'zi yirik, mo'ynali kemiruvchi hayvon. 6. Qo'y-echki podasi. 7. Uzun mevasi donasi. 9. Suv oqishi uchun temirdan ishlangan uzun, ichi bo'sh qurilma. 10. Badiiy asarda voqeaning rivojlana boshlashiga sabab bo'lgan voqea, hodisa. 12. Davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo'riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmui. 15. Chuchuk suv havzalarida yashovchi, ba'zi turi xalq tabobatida ishlatiladigan jonivor. 16. Uglevodoroddan iborat moddaning chala yonishi natijasida hosil bo'ladigan qora rangli qattiq mahsulot. 17. Sholidan oqlab olinadigan don mahsuloti. 18. Ta'mi yaxshi ichimlik suvga berilgan sifat.

Boyiga: 1. Markaziy Osiyodagi Respublika poytaxti. 2. Samodagi quyuvlashgan suv bug'lari. 3. Qattiq holdagi jismning maydalanagan zarralari. 4. Obro'-e'tibor, ta'sir. 8. Ba'zi turi qo'lga o'rgatilib xonadonlarda boqiladigan yirtqich sutemizuvchi. 9. Yer qa'ridan suv olish inshooti. 11. Kishining butun borlig'i, a'zoi badani. 12. Insonning qoniqish hissi, rohat. 13. O'tning bir yoshgacha bo'lgan bolasi. 14. Futbol o'yinida eng yaxshi himoya deb hisoblanuvchi holat.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Pazanda qizgal



Buxoroning Olot somsasini iste'mol qilganmisiz? Bugun siz bilan ushbu somsani

birgalikda tayyorlab ko'ramiz.

Avvalo, bizga xamiri uchun ikki kosa un, bir yarim oshqoshiqda tuz va qaynab sovutilgan suv;

Qiyimasiga esa 1 kilogramm lahm mol go'shti, 500 gramm piyoz, 3-4 dona pomidor, tuz, ziravorlar kerak bo'ladi.

BUXOROCHA SOMSA

Tayyorlanishi: un elab, namakobli suvga solib xamir qoriladi va tindirishga qo'yiladi.

Go'shtni maydaroq qilib, piyozni esa mayin to'g'raymiz, ozroq charvi yog'i ham qo'shiladi. Pomidorlarni po'stlog'i artilib maydalanadi va go'shtga qo'shiladi. Qiyмага murch, zira, tuz qo'shiladi.



Tingan xamirdan yong'oqdan kattaroq qilib zuvalachalar uzib olinadi. Keyin o'rtasi qalinroq, chetlarini yupqa qilib yoyiladi. O'rtasiga qiyma solinib, uchburchak shaklida tugiladi. 180

haroratda qizdirilgan gaz pechida 10-15 daqiqa davomida pishiriladi.

Somsalarning yuzi qizargandan so'ng gaz pechidan olmasangiz, uning ichi qurib, sirti qotib qolishi mumkin. Mana, buxorocha somsa ham tayyor.

Yoqimli ishtaha!

FOYDALI MASLAHATLAR

To'yimliligi va ta'mini saqlab qolish uchun loviya qaynab chiqqandan keyin suvini to'kib, yana boshqa suv va o'simlik yog'i solib qaynating.

Baliq bo'laklari yoyilib ketmasligi uchun qovurishdan oldin tuz seping, unga yaxshilab belab oling va qizigan yog'ga soling.

Tort kremidagi qaymoq yumaloqlanib qolmasin desangiz, ishlatishdan oldin uni ozroq sut solib suyultiring.

Shokolaadni suyultirishda salat yog'ini ishlatangiz, pishiriq usti yaltirab, chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi.

NARGIZA tayyorladi

8

19-avgust 2019

Tong yulduzi
Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA
Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

Tahrir hay'ati:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillim va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 5647
Buyurtma - V 3706

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08